



ISSN: 2181-7774

1 (19) 2025

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI



**ВЕСТНИК АГРАРНОЙ НАУКИ
УЗБЕКИСТАНА**

**BULLETIN OF THE AGRARIAN
SCIENCE OF UZBEKISTAN**



**LOYIHA RAHBARI VA
TASHABBUSKORI:**

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Toshkent davlat agrar universiteti

BOSH MUHARRIR:

Kamolitdin SULTONOV

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI:

Laziza G'OFUROVA

IJROCHI DIRECTOR:

Baxtiyor NURMATOV

MAS'UL KOTIB:

Ubaydullo RAHMONOV

DIZAYNER-SAHIFALOVCHI:

Denislam ALIMKULOV

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yhatiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25 fevralda 1548-sonli
guvohnoma bilan qayta ro'yhatga
olingan.

Jurnal 2000 yil aprel oyidan tashkil topgan
jurnal bir yilda 6 marta chop etiladi.

Bosishga ruxsat etildi: 20.02.2025.

Qog'oz bichimi 60x84¹/₈

Offset usulida cosildi. Biyurtma №
Adadi: 100 nusxa.

«Agrar fani xabarnomasi» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati,
Qibray tumani, Universitet ko'chasi,
2-uy

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

№ 1 (19) 2025

Ilmiy-amaliy jurnal

Tahrir hay'ati raisi:

Abdurahmonov Ibrohim

O'zbekiston Respublikasi

Qishloq xo'jaligi vaziri

Tahrir hay'ati a'zolari:

N.Oblomuradov

S.Islamov

X.Mardonov

K.Sultonov

A.Abduvasikov

D.Mamadiyarov

Sh.Nurmatov

T.Ostonaqulov

X.Bo'riev

R.Sattarova

U.Ruzmetov

A.Xasilbekov

S.Ulug'ova

A.Raximov

N.Kuchkarova

M.Mahammatova

A.Musurmonov

B.Atoev

M.Yusupov

M.Faxrutdinov

E.Umurzakov

S.Djumaboev

I.Gorlova

I.Karabaev

B.Kamilov

Ta'asischi:

Toshkent davlat agrar universiteti

Agrar fani xabarnomasi MCHJ

Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi 2-uy,
ToshDAU.

Tel: (+99871) 260-44-95. Faks: 260-38-60.

e-mail: nurmatovbaxtiyor868@gmail.com

Maqolada keltirilgan fakt va raqamlar uchun
mualliflar javobgardir.

ВЕСТНИК АГРАРНОЙ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА

**BULLETIN OF THE AGRARIAN SCIENCE OF
UZBEKISTAN**

M U N D A R I J A

Paxtachilik

Эргашев О.Р. Ўрта толали ғўза генотипларида тола узунлиги белгиси бўйича популяция таркибининг тахлили.....	6
Xoldarov Sh.T. Paxta xomashyosining sifat ko'rsatkichlariga turli omillarning ta'sirini o'rganish.....	8
Sayfutdinov P., Abduraxmonov I., O'razmatov N.N. Andijon viloyatining tuproq iqlim sharoitlarida yaratilgan SP-207 g'o'za navi.....	10

G'allachilik

Хамраев Ф.Х., Тоғаев А.А. Кузги юмшоқ буғдой дон ва сомон ҳосилига минерал ўғит меъёрларини таъсири..	13
---	----

Agroiqtisodiyot

Абдурахмонов О.Н., Сейтов А.Ж. Выбор базисных функций для моделирования неустановившегося движения воды с использованием простых элементов.....	17
Парманкулов Ф.Н. Алгоритмических средств поддержки принятия решений при управлении перераспределением компетентных кадров.....	23

O'simlikshunoslik

Xalikov B.M., Toylovonov B.N., Po'latov S.M., Abdiyev F.R. Qand lavlagining ildizmeva hosildorligi va shakarlik darajasi.....	35
Amanova M.M., Karshibaev X.K. Mirzacho'lda introduksiya qilingan qizil goji o'simligining istiqbollik darajasi.....	39
Bobokulov Z.R., Muxammadiyeva L. No'xat navlari urug'larining dala unuvchanligi va hosilni yig'ishtirishgacha saqlanishi.....	42
Джўраев М.Я., Эргашев У. Мойли зиғир флиз навининг тупроқ-иқлим шароитга мослашувчанлигини ўрганиш ва қўлланиладиган агротехник тадбирлар.....	44
Idrisov X.A. Mosh (<i>Phaseolus aereis</i> Piper) ning nav tanlov ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqot natijalari.....	46
Бердикеев Д.Б., Азизов К.К., Сейтбаев Р.С., Бердикеев Б.Б. Қўшиб экилган экинларни баргдан озиклантиришнинг ўсимлик ривожланиш даври ва хўжалик қимматли хусусиятларига таъсири.....	48
Сиддиқов Р.И., Мўминов А.А., Ўринбоев Х.Х. Аҳоли томоркаларида кунгабокар ва фасолдан икки марта дон ҳосили етиштириш агротехнологияси.....	51
Буриева М.Р., Ражабова Н.А., Кадирова Д.Э., Мамажонов И.К. Использование антикоагулянтных свойств лекарственных средств узбекистана.....	55
Яқубов З.Л. Хўраки нўхатни дастлабки нав синаш кўчатзоридagi нав ва тизмаларнинг асосий биометрик кўрсаткичлари.....	59

O'rmonchilik va landshaft dizayni

Улугова С.Ф., Рузметов У.И. Минерал ўғитлар <i>Euodia daniellii</i> ва <i>Melia azedarach</i> турларининг ўсиши ва ривожланишига таъсири.....	62
Жўрамуродова М.И. Ўзбекистонда павловния дарахтини кўпайтириш истикболлари.....	65
Салоҳиддинов Ғ.М. Япон софораси кўчатларини экиш схемасининг ўсиш ва тўпуллари сонига таъсири.....	67

Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar

Парманкулов Ф.Н. Принципы интеграции образования и производства при подготовке современного инженера.....	71
---	----

Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini saqlash va qayta ishlash

Дехконова Ш.Ю. Узумнинг уруғсиз навларини сояки усулда қуритишда шамоллатиш тизимини қўллаш интервалини қуритиш давомийлигига таъсири.....	80
Zaynobbiddinov M.Z.T. Javdar donini qayta ishlab un olish va non ishlab chiqarish texnologiyasi.....	82
G'aniyeva D.M. Qog'oz qopchalarni olmaning hosildorligiga ta'sirini o'rganish.....	86

Seleksiya, genetika va urug'chilik

Ochildiev O'O., Usenbaev A.M. Анар селекциясининг аҳамияти ва долзарблиги.....	88
--	----

Po'latov S.M., Xashimova M.R. <i>Datura innoxia</i> mill o'simligi bargining tarkibidagi npk miqdorlariga azotli o'g'itlarning shakl va me'yorlarini qo'llashning ta'siri.....	92
Narimanova N.A., Po'latov S.M. Boshlang'ich manbalar va f ₁ o'simliklarda morfo-xo'jalik klaster tahlili.....	95
Eshpo'latov N.M., Yusupov Sh. B., Qodirov J.U., Qurbonazarov S. E. Hidroponika usulida uzum yetishtirish.....	98
Abdullayeva Y.U., Po'latova M.B., Norqulova O.N. Murasiga-skuga ozuqa muhitida turli o'simlik namunalari o'stirish usullari.....	100
To'shmamatov A.M., Namazov Sh.Э., Tuxliyev M.P. Мураккаб дурагайлаш оркали олинган F ₃ дурагайларида тола чикими ўзгарувчанлиги.....	103
Буриева М.Р., Абдулмянова Л.И., Нуралиева Х.А. Каттик фаза ферментация технологиясини қўллаш оркали эндофит замбуруғлардан меланин пигментини ажратиш олиш.....	104
Хўжакулова С.Р., Жўраев Д.Т., Жўраев С.Т. Юмшоқ буғдой селекцияси ёрдамида донда темир микдори юкори нав ва тизмаларни танлаш.....	108
Орипов Ш.Х. Лалмикор ерларнинг кир адирлик минтақаларида мойли зиғир селекцияси бўйича олинган асосий натижалар.....	110
Жўраев М.А. Лалмикор майдонлар учун юмшоқ буғдойнинг стресс омилларга чидамли янги кузги «Грекум-2003» нави.....	112

Mevachilik, sabzavotchilik va polizchilik

Ахмедова М.А., Дусмуратова С.И. Влияние обработки семян арбуза различными препаратами на развитие и урожайность растений.....	115
Ганижонов Д.И., Исмаилов О.Ю. Кинематическое уравнение состояния-уравнение, описывающее кинематическое уравнение состояния в виде.....	117
Boyto'rayeva F., Janakova D.U. Yupiter navi (<i>Vitis vinifera L.</i>) g'ujumlarini gullashdan keyingi muddatda donalab siyraklashtirish va uning uzum boshi hamda g'ujumlar tuzilishi va tarkibiga ta'siri.....	121
Ballasov B.M., Faxrutdinov M.Z., Jo'raev S.T. Apelsin ko'chatini yetishtirish texnologiyasi.....	124
Hojiyev S.S., Komilova M.A. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida tarvuzning erta va o'rtapishar navlarining o'sish, rivojlanish va hosildorligini o'rganish.....	128
Абдураманова С., Агзамходжаев Ж., Турдалиева О. Сорта цитрусовых для выращивания в широких траншеях Узбекистана.....	131
Турдиева Ф.Т. Бамянинг биологияси ва етиштириш технологияси.....	134
Эрматов А., Мирзахидов У., Абдураманова С. Фенофазы и урожайность сортов груши.....	135
Юлдашева Х.Т. Зайтун ўсимликларида ҳосил элементларининг шаклланиши.....	137

Tuproqshunoslik va agrokimyo

Kadirova D.N., Choriyeva M.B. surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilgan noyob zanjabil ildizpoyasi tarkibidagi flavonoidlar miqdoriga mineral o'g'itlarning ta'siri.....	139
Kadirova D.N. Noyob zanjabil ildizpoyasi tarkibidagi oqsil miqdoriga mineral o'g'itlarning ta'siri.....	141
Boboyev F.F. Och tusli bo'z tuproqlarning mexanik tarkibi va qo'llaniladigan agroteknologik usullar.....	144
Sattarov J.S., Mahammadiyev S.Q., Maxkamova D.Yu., Nematullayeva L. S., Asilbekova Sh.M., Karimova S.S. Tritikale etishtirishda mineral o'g'itlar me'yorini tuproq geokimyoviy tarkibiga ta'siri.....	146
Махкамова А.Ш. Влияние рельефа на распределение агрохимических показателей орошаемого типичного серозема.....	151
Шокиров Б.Қ. Қашқадарё ғарбий қисми суғориладиган шўрланган майдоналарининг ҳозирги замон гидрогеологик шароитлари.....	153
Jabbarov Z., Nomozov U. Orol dengizi qurigan tubining sharqiy qismining tuproq-guruntlarining mexanik tarkibi.....	156
Xalikov B.M., Ganiyev S.E. Tuproqning sho'rlanish ko'rsatkichlarini o'zgarishiga siderat ekinlar va mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri.....	160
To'ychiyev Sh.Sh. Qarshi tumanining o'tloqi taqirsimon tuproq xossalarini yaxshilashda mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish yo'llari.....	162
Хайридинов А.Б. Развития геотермальной энергетики.....	164
Xayriddinov A.B., Hayitov J.T. Taqirsimon va taqirli - o'tloqi tuproqlarning xossalarini o'rganish.....	166
Юсупов Х., Юсупов Н.Х. Типик лалми бўз тупроқларда экиш технологиялари ва ўғитларнинг тупроқдаги нитрат азоти (N-NO ₃) динамикасига таъсири.....	167
Разаков А.М., Мадримов Р.М. Эколого-генетические особенности и эволюция серо-бурых почв при орошении на примере плато устюрт и тащаса.....	169

Dehqonchilik va melioratsiya

To'shpu'latov Ч.В. Тупроқ шўрини ювишни ўз муддатида ўтказиш юкори ҳосил гарови.....	177
Газиёв У.Л. Турли катор ораси ва суғориш тартибида ғўза навлари ўсиш ривожланишининг ҳосилдорликка таъсири.....	179
Kamalov A.K., Abduraxmonov Sh.X., Rizayev K.A. O'zbekistonning suv boyliklari va ulardan samarali foydalanish.....	181
Rajabova N., Sherimbetov V. Monitoring and assessment of tap water and groundwater quality by total dissolved solids (tds) ranges.....	183
Rajabova N. Assessment of groundwater quality: historical and fundamental approaches.....	188
Mavlanov L.B. To'g'li mintaqalarda xantal yetishtirishga ekish muddati va me'yorlarining ta'siri.....	191
To'xtashev B.B. Suv tanqisligini yumshatishda -erta bahordagi muhim tadbir.....	193

aniqlangan va seleksiya urug'chilik jarayonlarini o'rganish va tahlil qilish bilan asoslangan.

tahlili asosida optimal rejimga nisbatan suv tanqis rejimda, sovuqqa va kasallikka chidamliligi aniqlandi.

4. Turli issiqxona iqlim sharoitida sitrus o'simlik navining

Foydalangan adabiyotlar

1. Faxriddinov.M. Limonchilikning o'ziga xos sinoatlari. Tashkent. 2014 y.
2. Faxrutdinov M.Z. Jo'raev S.T. sitrus seleksiya yutug'i O'zbekistonda. "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnali. – Toshkent, 2022. – Maxsus son. – B. 30-31.
3. Faxrutdinov M.Z. Jo'raev S.T. O'zbekistonda sitrus o'simliklar seleksiyasi. Journal of Modern Philosophy Social Sciences and Humanities (January, 2023). – Krakow, Poland, 2023. – Volume 14. – P. 133-140.
4. Faxrutdinov M.Z., Jo'raev S.T., Rajametova S.Sh. Newly created propagation of citrus seedlings in a short term. BRITISH JOURNAL of Global Ecology and Sustainable Development. Volume-24, January, 2024. – P.143-149.

УДК635.1/8

Hojiyev Sanjar Samadovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti

E-mail address: hojiyevsanjar75samadov@gmail.com

Komilova Maftuna Anvarovna

Buxoro davlat universiteti magistranti

E-mail address: maftunakomilova271@gmail.com

BUXORO VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA TARVUZNING ERTA VA O'RTAPISHAR NAVLARINING O'SISH, RIVOJLANISH VA HOSILDORLIGINI O'RGANISH

Annotatsiya-Maqolada tarvuzning Shirin, Dilnoz va Astraxan navlarining rivojlanishi va hosildorligi haqidagi tafovutlar va navlardagi umumiy belgilarga ba g'ishlandi.

Kalit so'zlar: Tuproq, tarvuz, navlar, ekish muddati, ekish me'yori, mineral va organik o'g'itlar me'yori, tajriba maydoni.

Аннотация- В статье рассмотрены различия в развитии и продуктивности сортов арбуза Ширин, Дилноз и Астраханский и общая характеристика сортов.

Ключевые слова: Почвы, арбуз, сроки посадки сортов, критерии посадки, критерии минеральных и органических удобрений, опытное поле.

Annotation-The article focuses on the differences in the development and productivity of the Shirin, Dilnoz and Astrakhan varieties of watermelon and the general characteristics of the varieties.

Key words: Soil, watermelon, varieties planting period, planting criteria, mineral and organic fertilizer criteria, experimental area.

Kirish. Bugungi kunda butun yer yuzasida aholi sonining yuqori darajada o'sib borishi, iqlim o'zgarishi va eng asosiysi suv tanqisligi yildan yilga ortib borayotgan bir davrda, mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, resurs tejankor texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori hosil olish olimlar oldidagi muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekistonda yetishtirilgan poliz va sabzavot ekinlari qadimdan xaridorgir bo'lib, o'zining hosildorligi va shirin ta'mi bilan dunyoning barcha mamlakatlarida shuhrat qozongan. Bugungi kunga kelib poliz maxsulotlarini yetishtirish nafaqat qishloq xo'jaligi sohasining, balki boshqa iqtisodiyot sohaslarining oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Buxoro vohasi o'rta osiyodagi eng qadimgi va yirik dehqonchilik maskanlaridan biridir. Buxoro vohasi Zarafshon daryosining quyi qismida joylashgan. Ushbu voha shimoli sharqda Hazora yo'lagi orqali Navoiy Konimex vohasiga, janubi g'arbda esa Jondor yo'lagi orqali Qorako'l vohasiga tutashgan. Buxoro vohasining umumiy uzunligi 80 km ni tashkil qiladi. Kengligi esa 50 km

bo'lib asosan cho'l mintaqasida joylashgan. Buxoro

vohasining relefida jiddiy o'zgarishlar kuzatiladi. Bunga asosiy sabab inson omili hisoblanadi. Buxoro vohasining ko'p qismi paxtachilik, mevachilik, sabzavotchilik, polizchilik, g'allachilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanishga moslashgan. Buxoro vohasida tarqalgan mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoqli tuproqlarni tashkil etadi. Bunday tuproqlar asosan Buxoro vohasining Buxoro, Vobkent, Peshku tumanlarining tuproqlari uchun xosdir. Og'ir qumoqli va loyli tuproqlar kam miqdorda bo'lib, bunday mexanik tarkibli tuproqlar Buxoro vohasining Qorovulbozor hududida boshqa hududlarga qaraganda nisbatan ko'proq.

Tarvuzning o'sishi, rivojlanishi hamda undan yuqori hosil olishda iqlim muhim rol o'ynaydi. Buxoro viloyati iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozi issiq, quruq, uzoq muddatlidir. Iyulning o'rtacha harorati 28-32°, qumliklarda esa 60-70° gacha ko'tariladi. Yanvarning o'rtacha harorati 0° dan -2° gacha bo'ladi. Yillik yo g'in 90-150 mm. Asosan bahor va qishda yog'adi. Buxoro viloyatining vegetatsiya davri 220 kunni tashkil qiladi. Asosiy suv manbai Amu-Buxoro mashina kanali. Quyimozor, To'dako'l, Sho'rko'l suv omborlarining ahamiyati katta. Bundan tashqari vohalar atrofida zovur va oqova suvlar

tashlanadigan Dengizko'l, Qoraqir, Katta Tuzkon va Devxona kabi ko'llar mavjud.

Asosiy kism.

Tarvuz respublikamizda shu jumladan Buxoro viloyatida ham asosiy poliz ekinlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Buxoro viloyati tuproqlari tarvuz yetishtirish uchun yaroqlidir. Dunyo polizchiligidan ma'lumki, poliz ekinlarining ko'pgina turlari shular qatorida tarvuz o'simligi ham quyosh nuri doimiy tushib turadigan, organik moddalarga va mineral ozuqa elementlariga boy bo'lgan qumloq va qum tuproqli yerlarda yaxshi o'sib rivojlanadi va yuqori hosil beradi. Biroq tarvuz o'simligi o'tloqi yerlarda yaxshi hosil bermaydi.

Tarvuzning erta- o'rtapishar navlariga misol qilib quyidagi navlarni keltirish mumkin.

1. Shirin
2. Sharq nemati
3. Dilnoz.
4. Surxon tongi.
5. Uzbekskiy 452
6. Astraxan.

Ushbu maqola tarvuzning Shirin, Astraxan va Dilnoz navlarini o'rganishga ba'g'ishlanadi.

Tarvuz respublikamizda asosiy poliz ekinlaridan biri bo'lib, uning eti va shirasidan kamqonlikni davolash, yallig'lanishga qarshi kurashda va o't suyuqligini haydash xususiyati kuchli bo'lib, shuningdek ateroskleroz, moddalar almashinuvi buzilishi, jigar va yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Bundan tashqari tarvuzda likopin moddasining mavjudligi turli nurlarga, ayniqsa ultrabinafsha nurlariga qarshi kurashda yordam beradi. Tarvuz – A, S, E vitamin, V guruhi vitaminlari, magniy, kaliy, kalsiy, fosfor, temir va natriy moddalarini o'zida saqlaydi.

TARVUZ NAVLARI

Astraxan tarvuz navi. Ushbu nav Turkmanistonning mahalliy navi bo'lib hisoblanadi. Astraxan tarvuz navi erta-o'rtapishar nav bo'lib, o'sish davri 70-85 kunni tashkil qiladi. Mevasi sharsimon yoki biroz cho'zinchoq tarvuz. Pishgan mevalarining pulpasi yorqin qizil, suvli, xushbuy, qo'pol taneli, o'ziga xos shirin ta'mga ega. Quruq davrlarda mevalarda bo'shliqlar paydo bo'lishi mumkin, ushbu

bo'shliqlar ta'mga hech qanday ta'sir qilmaydi. O'rtacha meva vazni 8-10kg ni tashkil etadi. Po'stlog'i o'zgaruvchan to'q va och yashil rangli chiziqlar shaklida naqsh bilan silliqdir. Ushbu navning tarvuzlari qalin po'stlog'li bo'ladi. Astraxan tarvuz navi ko'pchilik kasalliklarga chidamliligi bilan boshqa navlardan ajralib turadi. Ushbu nav qovoqlarga xos bo'lib, yetishtirish juda qulay va oddiy. U yuqori hosildorlik, mukammal tashish va mevalarni saqlash bilan ajralib turadi - ular ikki yarim

oygacha saqlanishi mumkin.



Dilnoz. Ushbu nav ham Astraxan navi kabi erta-o'rtapishar nav bo'lib hisoblanadi. Mevasi sharsimon, po'sti to'q yashil, qora tikansimon gullari bor. Mevasining o'rtacha vazni 3,5-4 kg. Mevasi tarkibida umumiy qand miqdori 7,6% Eti to'q qizil, ser suv, mayin, shirador. Tarkibida qand miqdori 7,5-8,5%. Hosildorligi 30-35 t/ga. Urug'i mayda, 1000 ta urug'ining og'irligi 50-55 g. Urug'i unib chiqqandan keyin mevasi 85-90 kunda pishadi. Ushbu navning hosildorligi

300 s/ ga dan yuqori. Dilnoz navi 1994-yildan boshlab O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi. Tashishga chidamliligi yuqori.



Shirin navi. Ushbu nav yangi tarvuz navlari sirasiga kiradi. Shirin navi ham yuqoridagi navlar singari erta-o'rtapishar nav bo'lib, o'sish davri 86-89 kunni tashkil etadi. Mevasi sharsimon, po'sti och yashil hamda to'q yashil ranglarda bo'ladi. O'rtacha enli tikansimon gullari bor, mevasining vazni 3-4 kg bo'lib, eti och qizil va sersuv. Tarkibida qand miqdori 11,0-11,4%. Hosildorligi 30-35 t/ga. Ushbu navlar tashishga chidamliligi yuqori bo'lishi bilan boshqa navlardan farq qiladi.



Tarvuz turli xildagi qumli yerlarda eng yaxshi o'sadigan poliz ekini hisoblanadi. Fuzarioz va boshqa patogenlar (kasallik qo'zg'atuvchi)lar yerda paydo bo'lishining oldini olish maqsadida o'simlikning aylanishiga (sevooborot) rioya qilish kerak va tarvuzni shu ekilgan yerga 7-8 yilda bir marta ekish kerak.

Tarvuzdan yuqori hosil olish uchun boshqa sabzavot va poliz ekinlari kabi tarvuz o'simligiga ham mineral va organik o'g'itlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Mineral o'g'itlar bevosita va bilvosita ishlatiladigan o'g'itlarga bo'linadi. Tarvuz o'simligiga bevosita ishlatiladigan mineral o'g'itlardan asosan azot, fosfor va kaliy qo'llaniladi. Tarvuzdan yuqori hosil olish maqsadida gektariga 225 kg azot, 225 kg fosfor va 150 kg kaliy solinadi. Mineral o'g'itlar asosan erta bahorda yoki kuzda asosiy

o'g'itlash, ekish vaqtida va o'suv davrida solinadi. Bilvosita ishlatiladigan mineral o'g'itlar asosan, tuproqning agrokimyoviy va fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilashda qo'llaniladi. Mineral o'g'itlarning samaradorligi juda ham yuqoridir. Faqatgina mineral o'g'itlar bilan cheklanib qolmasdan organik o'g'itlardan ham foydalaniladi. Organik o'g'itlar gektariga 25 tonna solinadi. Yillik me'yorga nisba tan organik va kaliyli o'g'itlarning hammasi, fosforning 70-75% asosiy shudgorga solinadi. Fosforli o'g'itning qolgan 25-30% va azotning 50% ekish oldidan yoki birinchi chopiqda beriladi. Azotli o'g'itning 50% ekinlar gullay boshlaganda ikkinchi chopiqda egatlarga 10-12 sm chuqurlikka solinadi. Yerga azotli va fosforli o'g'itlarni birgalikda solish alohida-alohida solishga qaraganda ko'proq samara beradi.



Xulosa

1. Tarvuz navlaridan yuqori hosil olish uchun unga barcha agrotexnik tadbirlarni to'g'ri va o'z vaqtida qo'llash zarur. Birinchi navbatda tarvuzdan yuqori hosil olish uchun unga mineral va organik o'g'itlarni me'yorida va o'z vaqtida qo'llash zarur. Chunki o'g'itlar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga hamda dalalar va o'tloqlarning umumiy biologiya mahsuldorligiga faol ta'sir ko'rsatadi.

2. Buxoro viloyati tuproqlari kuchli sho'rlanishga moyil bo'lib, har bir fermer va tomorqa yer egalari tuproqlarning holatidan kelib chiqib ekiladigan ekin turini tanlashi zarur. Tarvuz o'simligini yetishtirish texnologiyasi begona o'tlarni

tozalash, tuproqni yumshatish va o'rtacha sug'orishni o'z ichiga oladi.

3. Buxoro viloyatida tarvuzning mahalliy Shirin navi kam sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida tomchilatib sug'orish usulini qo'llash orqali yuqori hosil olishga tavsiyalar beriladi va tomchilatib sug'orish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

4. Tarvuzning Dilnoz va Astraxan navi eksportbop nav bo'lib, ushbu navlar kasalliklarga chidamli va uzoq muddat saqlash uchun yaroqlidir. Ushbu navlarni 20-apreldan 10-mayga qadar ekish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish to'g'risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.

2. "TARVUZ NAVLARINI YETISHTIRISH AGROTEKNIKASI" Ortiqova Dilyora G'ayratjon qizi Abduhalimova Odinxon Rustambek qizi Abdurazakova Gulruxsora Otabek qizi Ma'rufjonova Manzuraxon Nurmuhammad qizi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. 2023-yil.

3. EKSPORTBOP QOVUN VA TARVUZ NAVLARINI YETISHTIRISH VA ULARNING AGROBIOLOGIK XUSUSIYATLARI Mirzamad Isaevich Odinaev Toshkent davlat agrar universiteti, q.x.f.f.d. (PhD) mirzamad_odinayev@mail.ru Dilmurod Valijon o'g'li Xakimov Toshkent davlat agrar universiteti, t.f.f.d. (PhD) dhakimov91@mail.ru Azizbek Ro'ziqul o'g'li Abdirayimov Toshkent davlat agrar universiteti, assistent abdirayimov9191@mail.ru.

4. М.У.Халимова – Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий тадқиқот институти Сабзавот, полиз экинлари селекцияси лабораторияси катта илмий ходими. Қ.Х.Ф.Н.

5. Х.Ч.Буриев. Мамлакатимизда сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликнинг ҳолати, муаммолари ва ривожланиш истикболлари. Ўзбекистон аграр фани хабарномаси, 2022, 3-сон.